

UDK 619

QISHLOQ XO'JALIGI HAYVONLARNI KASTERATSIYA QILISHNING SAMARALI TARAFLARI

*Arziyev X.Y. - Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Nukus filiali "Veterinariya meditsinasi va oziq – ovqat xavsizligi"
kafedrasi katta o'qituvchi.*

E- mail: arzievxidir70@mail.ru

*Arislanbekov I.A. - Samarqand davlat veterinariya medicinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali.*

E- mail: Ilhambekarislanbekov65@gmail.com

Abatbaeva A.M. – SamDVMCHBU Nukus filiali talabasi.

E- mail: abatbaevaaygul2301@gmail.com

Annotasiya: Ushbu maqolada qishloq xo'jaligi hayvonlarni kastratsiya qilish yo'lari va hayvonlarda kuzatilgan o'zgarishlar haqqida bayon qilingan. Qoraqolpog'iston Respublikasi Nukus shahrida on oylik takada kastratsiya ishlari amalga oshirilganligi, hayvonlarda qanday o'zgarishlar yuz berishi va uning iqtisodiy ahamiyati haqqida yozilgan.

Kalit so'zlar: yod, ligatura qoyish, fiksatsiya, operatsiya texnikasi, antibiotik va vitamin terapiya.

Summary: This article describes the methods of castration of farm animals and the changes observed in animals. In the city of Nukus of the Republic of Karakalpakstan, it is written about a ten-month castration, what changes occur in animals and its economic significance.

Key words: iodine, ligature, fixation, surgical technique, antibiotic and vitamin therapy.

Kirish

Bugungi kunda respublikamizda qishloq xo'jaligi va chorvachilikka katta etibor qaratilmoqda. Bu sohada o'z biznesini rivojlantirishni hojlagan insonga davlatimiz tomonida ko'pgina imkoniyatar va yordamlarni bermoqda. Hozirgi kunda qishloq xo'jaligi va chorvachilik sohalarida ko'pgina xususiy fermer xo'jaliklari ish yuritmoqda. Bu fermer xo'jaliklarning barchasining maqsadi bir yangi xalqimizni arzon, sifatli oziq ovqat va charva mahsulotlari bilan taminlash va yurtimizning eksport salohiyatini yanada oshirishdir.

Bugungi kunda yurtimizga chet davlatlardan yuqori mahsuldor chorva hayvonlari olib kelinmoqda. Bu esa veterinarlar va chorvadorlarga katta zimmani, yangi mahalliy zotli hayvonlar bilan yuqori nasildor hayvonlarni urchitib yangi zot yaratishdir. Hozirgi

kunda ko'pchilik davlatlarda shu jumladan bizdaham chorva hayvonlarini ekstensiv usildan, intensiv usilda etishtirib mahsulot olishga asoslanmoqda. Bunda hayvonlarning tez yetiluvchanligi va mahsulot berishi ko'zda tutilgan. Qishloq xo'jaligi hayvonlari ayniqsa mayda shoxli hayvonlar (qochqor va takalar) ni kastratsiya qilish orqali, ularning tez etiluvchan bollishi, tirik vaznining boshqa kastratsiya qilinmagan turdoshlaridan tubdan farq qilishi, o'ziga xos sfetsefik hidning yo'qolishi, go'shtining mayinligi va yumshoqligi bilan tubdan farq qiladi. Shu sababdan bugingi kunda mayda shoxli hayvonlarni kastratsiya qilish orqali ularni intensiv yo'l bilan oziqlantirish natijasida ulardan qisqa vaqt ichida sifatli go'sht mahsulotini olib, oholini arzon go'sht va go'sht mahsulotlari bilan taminlash zarur. Huddi shu yo'lni qo'llab chorvachilik bilan shug'illanyotgan fermer xo'jaliklarning iqtisodiy ko'rsatkishlari tez o'sib boradi. Agar bunday fermer xo'jaliklar hayvonlarni yoylov sharoitida boqadigan bo'lsa ortiqcha harajatsiz va tez fursat ichida mahsulot olishka erishadilar.

Kastratsiya (axtalash) – bu jinsiy bezlar ish qobiliyatini suniy ravishda to'qtataish demakdir. Buni ko'pincha jinsiy bezni bichish yo'li orqali bajaradi. Shuning bilan birga erkak hayvonlarda shunday operatsiya o'kazish usullari mavjud, natijada qon bilan taminlanishi va inervatsiya qobiliyatining buzilishi, ularning tarkibiy qisimidagi elementlarning emirilishi, jinsiy bezlar to'la ravishda yo'ki qisman atrofiyaga uchrashidir. Bu yo'l bilan jinsiy bezlarning fiziologik ish qobilyati to'qtab qoladi, bunga kimyoviy va garmonal, maqsus dorilar, radioaktiv nurlar va boshqa tasurotlar asosiy sabab bo'ladi.

Axtalash natijasida hayvon tanasida modda olmashtirish qobiliyati tubdan o'zgaradi va bu munosabat tufayli uning troqqiyotida turli marfologik o'zgarishlarni ko'rish mumkin. Hayvon axtalangandan keyin, uni boqib semirtirish yaqshi natija beradi, go'shti yumshoq va kuchliroq, erkak hayvonlarga xos bo'lgan xid va tam tubdan o'zgaradi. Jun sifati yaqshilanadi, ishlatiladigan hayvon beozor va chidamli bo'ladi. Erkak hayvonlarni axta qilib jinsiy bezini butinlay olib tashlasa bunga – orxidektomiya deyiladi.

Operatsiya qilish texnikasi. Tajriba ishlarini Qoraqolpog'iston Respublikasi Nukus shahridagi “Qo'sh buloq” MFY da yashovchi aholi qaromog'idagi bo'lgan, on oylik mayda shoxli hayvonda amalga oshirildi. Hayvonlarda kastratsiya ishlarini amalga oshirish uchun ko'pgina usillar ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy qilingan. Mayda shoxli hayvonlarda quydagi usillarda kastratsiya ishlari amalga oshiriladi. Bular: ochiq, yopiq, qonli, qonsiz va elastratsiya usillaridir. Biz tajribamizni qonli usildan foydalangan holda amalga oshirdik.

Fiksatsiya va og'riqsizlantirish. Hayvonlarning to'rtta oyoqlarini juft – juft qilib va orqa boylangan oyoqlarni oldingi tomonga biroz tortib bog'landi. Natijada chot oblastida joylashgan juft urug'donlar osonlik bilan chiqadi. Bunda hayvonlarga umumiy va mahalliy og'riqsizlantirishdan foydalanilmaydi. Agar katta yoshli takalar

bo'lsa mahalliy og'riqsizlantirish mumkin. Biz bu operatsiyamizda umumiy va mahalliy og'riqsizlantirishdan foydalanmadik.

Ishni bajarish tartibi. Hayvon fiksatsiya qilingandan song urug'don xaltasining tashqi tomoninini yaniy kesish joyini 5% li yod bilan artib olindi. Urug' xaltasi qolga olinib taranglashtirilib qisildi va skalpel yordamida urug' xaltasining yon tarafidan kesildi. Bu kesishda urug'donning hamma qavati birdaniga kesildi. Bundan song qin pardasini urug'dondan ajiratib olindi va urug'don chilvirining yuqori qismidan, oldindan sterillab qo'yigan ipak ip bilan zichlanib bog'landi. Ligatura qo'yilgan joydan 1-1,5 sm qoldirilib pastidan kesildi va kesilgan joyga yodlangan tampon bosildi. Ikkala urug'don olinib bo'lgandan keyin, urug'don xaltasi ichiga streptatsit tabletkasi kukin shaklida ezilib sepldi (har biriga alohida). Kesilgan yuzaga tampon yordamida 5 % li yod eritmasi bilan artildi.

Operatsiyadan keyin hayvoni 20 daqiqa mobaynida, ortiqcha bosim qilinmagan matsion qilindi. Agar hayvonni kastratsiya qilgandan so'ng befarq tashlab qo'yiladigan bo'lsa, unda hayvon kuchli og'riq natijasida bidaniga yotib qolishi mumkin. Bu esa jarohat yuzasiga yerdagi ko'pgina patogen mikroorganizmlarning tushishiga sabab bo'ladi. Natijada hayvonda har xil patologik jarayonlar rivojlanishi mumkin. Buning oldini olish uchun hayvonlarni kamida 20-30 daqida sekinlik bilan yurgizish zarur. Hayvon saqlanadigan joyga esa yumshoq to'shamalar (samon, harxil yovvoyi o'tlar, apilka) to'shash zarur. Hayvonni 20-30 daqiqa yurgizgandan keyin uni saqlanadigan joyiga yumshoq to'shamalar solinadi va hayvonlarni gentamitsin va V gruhi vitamionlari bilan ikki kun mobaynida davolash ishlari amalga oshirildi.

Xulosa

Kastratsiya qilingan takalar ikki kun mobaynida nazoratimizda bo'di va moalajalar o'z vatida amalga oshirildi. Hayvonlarning fiziologik holati yaqshilandi va oziqlanishi yaqshilandi. Axtalash o'tkazilgan takalarning umumiy holati tez yaqshilandi va ularning vazin olishi va o'ziga xos sfetsefik hidi yoqoldi. Har yili aholi va fermer xo'jaliklarida hayvonlarning tug'ish mavsumidan 2-3 oy o'tib (6 oydan kechiktirmasdan), hayvonlarda kastratsiya ishlari amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Hayvonlarning yosh paytida jinsiy azolari hali toliq etilishmagan va qon tomirlari bilan yaqshi inervatsiyalanmagan bo'lganligi sababli, ularda kastartsiyani amalga oshirish yaqshi samara berib, jarohatning tez bitib ketishiga zamin yaratadi. Yaqshi eksterer ko'rsatkishlarga ega bo'lmagan, nasil olishka yaroqsiz va ishlatilmaydigan, bunda qon - qorindosh chatishishlarining oldi olinadi, xo'jalikda nasilchilikishlari yaqshilandi va shuningdek axtalangan hayvonlarda tana vaznining ortishi ko'payadi, oziqalar sarfi kamayadi. Yana qo'shimcha qilish zarur jinsiy organlar kasalliklarida va iqtisodiy maqsatlarni ko'zlagan holda hayvonlarda kastratsiya ishlarini amalga oshirish juda yaqshi echim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. X.K. Rustomov, Ya.O. Oqbutayev, B.D. Narziyev “Operativ xirurgiya” Samarqand-1997.
2. D.S. Vohidova “Veterinariya jarrohligi” Toshkent-2016.
3. I. I. Magdi “Operativnaya xirurgiya” Moskva – 1990
4. H.B. Niyozov, N.Sh. Davlatov ”Umumiy va xususiy xirurgiya” Samarqand-2014
5. B.M. Eshburiyev “Veterinariya akusherligi” Toshkent -2018
6. Rustam Kurbanov "Qoy va echki boqish sirlari" Toshkent -2013
7. Internet malumotlari: <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Echkichilik>
8. <https://agro-olam.uz/xonadonda-echki-boqish/>